

**JAHON VA O‘ZBEK TILSHUNOSLIGIDA BOLALAR NUTQINING
O‘RGANILISHI**

Madraximova Gulnozahon Adxamovna

Andijon davlat texnika instituti, Tillar va gumanitar fanlar kafedrası assistenti

Email: guliadxamovna88@gmail.com

Tel 995321051

Annotatsiya.

Mazkur maqolada bolalar nutqi ontogenezi masalasining jahon va o‘zbek tilshunosligida o‘rganilish tarixi tahlil qilinadi. Tadqiqotda XIX asr oxiridagi kundalik-kuzatuv an‘analaridan boshlab XX asrning psixologik, psixolingvistik, generativ, sotsiomadaniy, funksional-pragmatik va korpusga asoslangan yondashuvlarigacha bo‘lgan ilmiy yo‘nalishlar izchil ko‘rib chiqildi. Jahon tilshunosligida bolalar nutqi avval bolaning individual rivojlanish faktlarini qayd etish orqali, keyinchalik esa til qobiliyati, grammatik tizimning shakllanishi, muloqot muhitining ta’siri, nutqiy akt va pragmatik kompetensiya kabi masalalar asosida tadqiq qilingan. O‘zbek tilshunosligida esa bu yo‘nalish nisbatan keyinroq shakllangan bo‘lsa-da, so‘nggi yillarda bolalar nutqining psixolingvistik, sotsiopsixolingvistik, pragmalolingvistik, deyktik, kvazidialogik va bilingval jihatlariga oid izlanishlar kengayib bormoqda. Maqolada mavjud ilmiy manbalar asosida o‘zbek bolalar nutqini tadqiq etishning bugungi holati, erishilgan natijalar va yechilishi lozim bo‘lgan muammolar aniqlanadi.

Kalit so‘zlar

bolalar nutqi, ontogenez, ontolingvistika, psixolingvistika, til o‘zlashtirish, pragmalolingvistika, bilingvizm, o‘zbek tilshunosligi.

Abstract

This article examines the history of research on child speech ontogenesis in world and Uzbek linguistics. The study consistently reviews major scholarly approaches, ranging from the diary-based observational traditions of the late nineteenth century to the psychological, psycholinguistic, generative, sociocultural, functional-pragmatic, and corpus-based approaches of the twentieth and twenty-first centuries. In world linguistics, child speech was initially investigated through the recording of individual developmental facts, and later became the subject of studies focusing on language faculty, the formation of grammatical systems, the influence of communicative environments, speech acts, and pragmatic competence. Although this field emerged relatively later in Uzbek linguistics, recent years have witnessed a significant expansion of research devoted to the psycholinguistic, pragmalinguistic, deictic, quasi-dialogic, and bilingual aspects of child speech. Based on an analysis of existing scholarly sources, the article identifies the current state of research on Uzbek child speech, highlights the achievements attained thus far, and outlines the issues that require further investigation.

Keywords

child speech, ontogenesis, ontolinguistics, psycholinguistics, language acquisition, pragmalinguistics, bilingualism, Uzbek linguistics.

Аннотация

В данной статье анализируется история изучения онтогенеза детской речи в мировой и узбекской лингвистике. В исследовании последовательно рассматриваются основные научные направления — от традиции дневниковых наблюдений конца XIX века до психологического, психолингвистического, генеративного, социокультурного, функционально-прагматического и корпусного подходов XX–XXI веков. В мировой лингвистике детская речь первоначально изучалась посредством фиксации фактов индивидуального развития ребенка, а впоследствии стала объектом исследований, связанных с языковой способностью, формированием грамматической системы, влиянием коммуникативной среды, речевыми актами и прагматической компетенцией. В узбекском языкознании данное направление сформировалось сравнительно позднее, однако в последние годы значительно расширился круг исследований, посвящённых психолингвистическим, социопсихолингвистическим, прагматическим, дейктическим, квазидialogическим и билингвальным аспектам детской речи. На основе анализа существующих научных источников в статье определяется современное состояние изучения узбекской детской речи, выявляются достигнутые результаты и обозначаются проблемы, требующие дальнейшего исследования.

Ключевые слова

детская речь, онтогенез, онтолингвистика, психолингвистика, усвоение языка, прагматическая лингвистика, билингвизм, узбекское языкознание.

Kirish

Bolalar nutqi tilshunoslik, psixologiya, pedagogika va neyropsixologiya kesishmasida joylashgan murakkab hodisadir. Bola tilni tayyor qoidalar majmuasi sifatida emas, balki muloqot, idrok, eshitish, taqlid, ehtiyoj, ijtimoiy munosabat va kognitiv tajriba orqali bosqichma-bosqich egallaydi. Shuning uchun bolalar nutqi kattalar nutqining soddalashtirilgan ko‘rinishi emas; u o‘z qonuniyatlariga ega bo‘lgan tabiiy rivojlanish tizimidir. Ontogenez nuqtayi nazaridan bu jarayon nutq tovushlarini farqlash, ilk so‘zlarni anglash va talaffuz qilish, so‘z birikmasi va gap tuzish, grammatik shakllarni umumlashtirish, kommunikativ maqsadni ifodalash hamda nutqiy vaziyatga moslashish kabi bosqichlarni qamrab oladi.

Adabiyotlar tahlili

Jahon ilmiy an‘anasida bolalar nutqiga qiziqish dastlab individual kuzatuvlar, ya‘ni bolaning kundalik nutqiy-harakatli rivojini yozib borish shaklida namoyon bo‘lgan. Ch. Darwinning 1877-yilda e‘lon qilingan chaqaloq rivojiga oid kuzatuvlari bunday empirik an‘ananing dastlabki namunalaridan biri sifatida tilga olinadi; keyinchalik W. Preyer, C. Stern va W. Sternlar bolaning sezgi, idrok, tovush, so‘z va fikrlash taraqqiyotini o‘zaro bog‘liq holda tasvirlashga intildilar [1; 2; 3]. Bu bosqichning ahamiyati shundaki, bola nutqi

laboratoriya sharoitida emas, tabiiy oilaviy muhitda kuzatildi; shu bois keyingi psixolingvistik tadqiqotlar uchun real material to‘plandi.

XX asrning birinchi yarmidan boshlab bolalar nutqi muammosi psixologik va lingvistik nazariyalar markaziga yaqinlashdi. J. Piaget bolaning nutqini tafakkur rivoji, egosentrik nutq va intellektual bosqichlar bilan bog‘ladi; L. S. Vygotsky nutqni ijtimoiy kelib chiqishga ega, keyinchalik ichki nutqqa aylanuvchi psixik vosita sifatida talqin qildi. Rus tilshunosligi va psixologiyasida A. N. Gvozdevning bola nutqini uzoq muddatli kuzatuvlar asosida o‘rganishi morfologik hamda sintaktik rivojlanish bosqichlarini aniq materialda ko‘rsatgani bilan muhimdir [4; 5; 6]. Bu yondashuvlar bola nutqiga faqat grammatik hodisa emas, balki aqliy va ijtimoiy taraqqiyot belgisi sifatida qarash imkonini berdi.

Ikkinchi jahon urushidan keyingi davrda bolalar nutqi bahsli nazariy maydonga aylandi. B. F. Skinner tilni mustahkamlash, taqlid va operant o‘rganish bilan izohlashga harakat qildi; N. Chomsky bu qarashga e‘tiroz bildirib, bolaning eshitmagan gaplarni ham tuza olishi va grammatik umumashtirish qobiliyatini faqat tashqi rag‘bat bilan tushuntirish yetarli emasligini ko‘rsatdi. E. Lenneberg esa til qobiliyatining biologik asoslari va sezgir davr masalasini ilgari surdi [7; 8; 9]. Shu davrdan boshlab bolalar nutqi tilning tug‘ma asoslari, muloqot muhiti, kognitiv rivojlanish, ijtimoiy yordam va nutqiy amaliyot o‘rtasidagi murakkab munosabat sifatida talqin qilina boshladi.

O‘zbek tilshunosligida bolalar nutqi alohida ilmiy yo‘nalish sifatida jahon tajribasiga nisbatan kechroq shakllangan. Dastlabki kuzatuvlar ko‘proq maktabgacha ta‘lim, nutq o‘stirish metodikasi, talaffuz, lug‘at boyligi va grammatik me‘yorlarni shakllantirish doirasida olib borilgan. Keyingi bosqichda esa bolalar nutqi psixolingvistik, grammatik va kommunikativ-pragmatik jihatdan o‘rganila boshladi. Bu yo‘nalishda N. S. Sayidirahimova va M. Qurbonova ishlarida bolalar nutqining shakllanishi, leksik boyishi, gap tuzish xususiyatlari hamda nutqiy rivojlanish omillari yoritilgan [18; 20].

Maqolaning dolzarbligi shundan iboratki, o‘zbek bolalar nutqiga oid tadqiqotlar soni oshib borayotgan bo‘lsa-da, ularni jahon tajribasi bilan qiyoslab, nazariy yondashuvlar kesimida umumashtirish hali ham zarur. Xususan, o‘zbek tilining agglutinatив tuzilishi, egalik va kelishik shakllari, so‘z yasash imkoniyatlari, hurmat-mulozamat birliklari, deiktik vositalar hamda oilaviy-madaniy nutq muhiti bola nutqi ontogenezida alohida o‘rin tutadi. Demak, bolalar nutqini o‘rganish nafaqat umumiy psixolingvistika uchun, balki o‘zbek tilining tabiiy o‘zlashtirilish mexanizmlarini aniqlash uchun ham muhimdir.

Material va metodlar

Maqola nazariy-tahliliy xarakterga ega bo‘lib, unda bolalar nutqi ontogenezi bo‘yicha yaratilgan asosiy ilmiy adabiyotlar, monografiyalar, dissertatsiyalar, maqolalar va ma‘lumotlar bazalariga tayangan holda umumashtirish amalga oshirildi. Tahlilga jahon tilshunosligidagi kundalik kuzatuvlar, psixologik va psixolingvistik konsepsiyalar, generativ nazariya, sotsiomadaniy yondashuv hamda CHILDES kabi korpus tashabbuslari kiritildi [1; 5; 8; 16]. O‘zbek tilshunosligi bo‘yicha esa maktabgacha yoshdagi o‘zbek bolalar nutqi, sotsiopsixolingvistik leksika, pragmalolingvistik xususiyatlar va gap turlari yuzasidan bajarilgan ishlar asosiy material sifatida olindi [18; 20; 22].

Tadqiqotda uch asosiy metoddan foydalanildi. Birinchisi — tarixiy-qiyosiy metod: u orqali bolalar nutqi tadqiqining turli davrlardagi ilmiy vazifalari, kuzatuv shakllari va nazariy qarashlari qiyoslandi. Ikkinchisi — konseptual tahlil metodi: bu metod yordamida “til o‘zlashtirish”, “ontogenez”, “egosentrik nutq”, “ichki nutq”, “nutqiy akt”, “deyxis”, “kvazidialogik nutq” kabi tushunchalarning bolalar nutqi tadqiqidagi o‘rni izohlandi. Uchinchi — muammoli-tipologik yondashuv: bunda jahon va o‘zbek tadqiqotlarida ustuvor bo‘lgan yo‘nalishlar ajratilib, ularning kuchli jihatlari va cheklangan tomonlari aniqlashtirildi.

Manbalarni tanlashda uch mezon asos qilib olindi: birinchidan, asar yoki maqola bolalar nutqi, birinchi tilni o‘zlashtirish yoki nutq ontogenezi masalasiga bevosita aloqador bo‘lishi; ikkinchidan, u ilmiy muomalada nisbatan tanilgan nazariya yoki empirik materialga tayanishi; uchinchi, o‘zbek tilshunosligiga oid manbalarda aynan o‘zbek bolalari nutqiy materiali, o‘zbek tilining grammatik-semantik xususiyatlari yoki milliy muloqot muhiti yoritilgan bo‘lishi. Shu asosda maqolada manbalar oddiy sanab o‘tilmay, balki ilmiy yondashuvlar taraqqiyoti nuqtayi nazaridan tahlil qilindi.

Natijalar

1. Jahon tilshunosligida bolalar nutqi tadqiqining shakllanish bosqichlari

Tahlil shuni ko‘rsatadiki, jahon tilshunosligida bolalar nutqi tadqiqi bir necha bosqichda shakllangan. Birinchi bosqichni kundalik-kuzatuv bosqichi deb atash mumkin. Bu davrda tadqiqotchilar o‘z farzandlari yoki yaqin atrofidagi bolalarning tovush chiqarishi, birinchi so‘zlari, emotsional reaksiyalari, predmetlarni nomlashi va kattalar nutqiga munosabatini yozib borganlar. Darwinning maqolasi, Preyerning bola ruhiyatiga oid kuzatuvlari, Sternlar oilasining bola tili haqidagi ishlari bunday tadqiqotlarda bolaning real hayotdagi nutqiy o‘sishi asosiy material bo‘lganini ko‘rsatadi [1; 2; 3]. Bu bosqich bugungi standartlarga ko‘ra cheklangan ko‘rinsa-da, u bolaning nutqiy rivojini vaqt bo‘yicha izchil qayd etish madaniyatini shakllantirdi.

Ikkinchi bosqich psixologik-ontogenetik bosqich bo‘lib, unda bola nutqi tafakkur, idrok va ijtimoiylashuv bilan bog‘liq holda o‘rganildi. Piaget bolalar nutqidagi egosentriklikni bolaning kognitiv rivojlanishi bilan izohladi, Vygotsky esa tashqi ijtimoiy nutq asta-sekin ichki nutqqa aylanadi, degan fikrni ilgari surdi [4; 5]. Natijada bolalar nutqini faqat talaffuz yoki so‘z boyligi bilan emas, balki fikrlashning shakllanishi bilan bog‘lab talqin qilish an‘anasi kuchaydi.

Uchinchi bosqichda til o‘zlashtirishni o‘rganish nazariy bahslar markaziga aylandi. Behavioristik qarash til o‘rganishni taqlid, rag‘bat va mustahkamlash jarayoni sifatida tushuntirdi, generativ yondashuv esa bola qisqa vaqt ichida murakkab grammatik tizimni egallashi uchun inson ongida tilga xos ichki imkoniyatlar mavjud bo‘lishi kerak, degan fikrni oldinga surdi. Lennebergning biologik asoslar haqidagi qarashlari bu bahsni til va miya rivoji, sezgir davr, neyrofiziologik pishilish masalalari bilan bog‘ladi [7; 8; 9]. Bu bosqichdan keyin bolalar nutqini o‘rganish bir yoqlama izohdan voz kechib, biologik, ijtimoiy va kognitiv omillar uyg‘unligini ko‘rsatishga intildi.

To‘rtinchi bosqich eksperimental va krosslingvistik tadqiqotlar bilan belgilanadi. J. Berkoning “wug test” tajribasi bolalar yangi, oldin eshitmagan so‘zlarga ham grammatik

qo‘shimchalarni qo‘llay olishini ko‘rsatdi. R. Brown ingliz tilida morfemalar o‘zlashtirilishining izchilligini, J. Bruner kattalar bilan hamkorlikdagi o‘yin va dialogik formatlarning ahamiyatini, D. Slobin tahriridagi tadqiqotlar esa bola grammatikani tilning tipologik qurilishiga mos holda egallashini ko‘rsatdi [10; 11; 12; 13].

Beshinchi bosqichda bolalar nutqini korpus, kompyuter va ochiq ma’lumotlar asosida tahlil qilish imkoniyatlari kengaydi. B. MacWhinney rahbarligida rivojlangan CHILDES tizimi bolalar nutqining transkripsiyalarini, audio-video materiallarini, morfologik va diskursiv belgilanishini umumiy formatda saqlash va tahlil qilish imkonini berdi [16]. Bu bosqichda tadqiqotchi endi faqat bitta bola nutqiga emas, ko‘p tilli, ko‘p yoshli va turli ijtimoiy muhitdagi bolalar nutqini qiyoslash imkoniga ega bo‘ldi. Natijada bolalar nutqi tadqiqi subyektiv kundaliklardan empirik, takror tekshiriladigan va statistik asoslangan modelga qarab siljidi.

2. Mavjud nazariyalar va yondashuvlarning umumiy tavsifi

Bolalar nutqi ontogenezini izohlashda yagona nazariya yetarli emas. Behavioristik yondashuv tashqi muhit va takrorning ahamiyatini, generativ nazariya ichki grammatik salohiyatni, sotsiomadaniy yondashuv kattalar bilan muloqotni, kognitiv va funksional-pragmatik qarashlar esa idrok, vaziyat va nutqiy maqsad omillarini asosiy mezon sifatida ko‘rsatadi [7; 8; 14]. Shu bois zamonaviy tadqiqotlarda bolalar nutqi ko‘p omilli hodisa sifatida talqin qilinadi.

1-jadval. Bolalar nutqi ontogenezini o‘rganishdagi asosiy yondashuvlar

Yondashuv	Asosiy g‘oya	Kuchli tomoni	Cheklovi
Behavioristik	Nutq taqlid, rag‘bat va mustahkamlash orqali egallanadi.	Muhit va takrorning ta’sirini ko‘rsatadi.	Ijodiy gap tuzish va umumlashtirishni to‘liq tushuntirmaydi.
Generativ	Bola tilga xos ichki grammatik salohiyatga ega.	Grammatik tizimning tez va ijodiy egallanishini izohlaydi.	Ijtimoiy muloqot va madaniy omillarni yetarlicha qamramaydi.
Sotsiomadaniy	Nutq kattalar bilan hamkorlik va ijtimoiy tajriba orqali shakllanadi.	Dialog, yordam va muhitning rolini ochadi.	Biologik va formal grammatik mexanizmlarni kamroq tushuntiradi.
Kognitiv	Nutq idrok, tushuncha, xotira va tafakkur taraqqiyoti bilan bog‘liq.	Til va tafakkur aloqasini ko‘rsatadi.	Ba’zan tilning o‘ziga xos tuzilishini umumiy bilishga singdirib yuboradi.

Yondashuv	Asosiy g‘oya	Kuchli tomoni	Cheklovi
Funksional-pragmatik	Bola tilni kommunikativ maqsadga erishish vositasi sifatida egallaydi.	Nutqiy akt, adresat, vaziyat va intonatsiyani tahlil qiladi.	Erta fonetik-morfologik rivojlanishning barcha jihatlarini qamrab olmaydi.
Korpus-krosslingvistik	Bolalar nutqi ko‘p tilli ma’lumotlar, transkripsiya va statistik tahlil asosida o‘rganiladi.	Natijalarni qiyoslash va qayta tekshirish imkonini beradi.	Katta hajmdagi standartlashtirilgan material va texnik tayyorgarlik talab qiladi.

Jadvaldan ko‘rinadiki, bolalar nutqi masalasida nazariy qarashlar bir-birini inkor etishdan ko‘ra, ko‘proq to‘ldiradi. Masalan, bola so‘zni kattalardan eshitadi, uni ma’lum vaziyatda qo‘llaydi, keyinchalik o‘zi uchun grammatik umumlashtirish hosil qiladi. Shu jarayonda tashqi muloqot ham, ichki bilish faoliyati ham, til tizimining o‘ziga xos qurilishi ham ishtirok etadi. Aynan shu bois zamonaviy ontolingvistika eksperiment, kuzatuv, korpus, diskurs tahlili va lingvopragmatik tahlilni uyg‘unlashtirishga intiladi.

3. O‘zbek tilshunosligida bolalar nutqining o‘rganilishi

O‘zbek tilshunosligida bolalar nutqini o‘rganish dastlab ta’lim va tarbiya jarayoniga yaqin bo‘lgan. Maktabgacha yoshdagi bolalarda to‘g‘ri talaffuz, lug‘at boyligini kengaytirish, ravon nutq, dialogik va monologik nutqni shakllantirish masalalari pedagogik-metodik adabiyotlarda muhim o‘rin tutdi. Biroq bu ishlar ko‘pincha “bolani qanday gapirtirish kerak?” degan amaliy savolga javob berishga qaratilgan bo‘lib, bolaning til tizimini tabiiy o‘zlashtirish mexanizmini chuqur lingvistik tahlil qilish keyingi bosqichlarda kuchaydi.

O‘zbek ontolingvistikasining nisbatan tizimli yo‘nalish sifatida shakllanishida N. S. Sayidrahimovanning maktabgacha yoshdagi o‘zbek bolalar nutqiga oid tadqiqoti muhim o‘rin tutadi. Bu ishda bola nutqining fonetik, leksik va grammatik xususiyatlarini yosh davri bilan bog‘lab ko‘rish imkoniyati yuzaga kelgan. Muallifning keyingi ishlarida bolalar nutqining psixolingvistik jihatlarini, predmet va hodisalarni idrok etish, so‘z va ma’no o‘rtasidagi bog‘lanishni shakllantirish hamda gaplarning ifodalanish maqsadiga ko‘ra turlari yoritilgan [18; 19; 22].

M. Qurbonovanning ishlari o‘zbek bolalar nutqini sotsiopsixolingvistik va pragmalolingvistik yo‘nalishda o‘rganish uchun muhim manba hisoblanadi. Uning tadqiqotlarida bolaning so‘z boyligi muloqot muhiti, oilaviy nutqiy tajriba, ijtimoiy sharoit va psixologik ehtiyojlar bilan bog‘liq holda tahlil qilinadi; bolalar nutqidagi nutqiy aktlar, deytik birliklar, kommunikativ-pragmatik to‘siqlar, baholash va murojaat shakllari ilmiy muomalaga olib kiriladi [20; 21]. Bu yo‘nalish o‘zbek bolalar nutqini oddiy “xatoli nutq”

emas, balki muloqot maqsadiga ega bo‘lgan mustaqil nutqiy faoliyat sifatida talqin qilishga xizmat qildi.

H. U. Davlatovanning bolalar nutqining psixolingvistik xususiyatlari va shakllanish omillariga oid monografik ishi o‘zbek tilshunosligida ijtimoiy muhit, ruhiy holat, gender farqlanish, muloqotga kirishish omillari va ekstralingvistik sharoitlarni birgalikda tahlil qilishga uringani bilan e’tiborlidir [23]. Bu yondashuv bolalar nutqini faqat til ichidagi fonetik yoki grammatik hodisalar bilan cheklamay, nutqiy faoliyatni shakllantiruvchi psixik va ijtimoiy sharoitlarni ham tadqiq doirasiga kiritadi.

So‘nggi yillarda bolalar nutqining kvazidialogik, ichki nutq va o‘yin jarayonidagi nutqiy ijodkorlikka aloqador jihatlar ham alohida yo‘nalish sifatida ko‘rina boshladi. N. K. Musayevanning bolalar kvazidialogik nutqining pragmatik xususiyatlariga oid tadqiqoti bu borada muhimdir [24]. Kvazidialogik nutq, ayniqsa, bola o‘yinchoq, obraz yoki tasavvur qilingan suhbatdosh bilan gaplashganda, kattalar nutqini o‘zlashtirib, uni o‘z ehtiyojiga mos ravishda qayta qurishini ko‘rsatadi. Bunday nutq shakllari bolaning dialogni faqat tashqi muloqotda emas, ichki rejalashtirish va rol o‘yinlarda ham egallashini ko‘rsatadi.

O‘zbekistonda ikki tillilik sharoiti ham bolalar nutqi tadqiqida muhim yo‘nalishga aylanmoqda. M. B. Shamsiyevaning bilingval bolalar nutqiga oid izlanishlari ona tili va ikkinchi til o‘rtasidagi o‘zaro ta’sir, interferensiya, kod almashish, til qobiliyatlari va nutqiy mexanizmlarni aniqlashga yo‘naltirilgan [25]. O‘zbek jamiyatida rus, ingliz, tojik, qoraqalpoq va boshqa tillar bilan aloqa sharoitlari mavjudligi bois bilingval bolalar nutqini o‘rganish faqat pedagogik vazifa emas, balki psixolingvistik va sotsiolingvistik muammo hamdir.

Yana bir e’tiborli yo‘nalish — bolalar nutqidagi innovatsiyalar, so‘z ijodi va bolalar adabiyoti ta’sirini o‘rganishdir. N. J. Yarashovanning bolalar nutqiy innovatsiyalariga oid ishlari bola nutqidagi yangi so‘zlash, noto‘g‘ri ko‘ringan, ammo ichki analogiyaga asoslangan shakllar til tizimini egallash jarayonidagi faol umumlashtirish belgisi ekanini ko‘rsatishga xizmat qiladi [26]. Bu yondashuv o‘zbek bolalari nutqida qo‘shimcha tanlash, so‘z yasash, fonetik moslashtirish va ma’no kengayishi kabi hodisalarni rivojlanish belgisi sifatida talqin qilishga imkon beradi.

O‘zbek tilshunosligidagi mavjud manbalarni umumlashtiruvchi ishlarda XXI asr boshlarida o‘zbek ontolingvistikasi alohida tadqiqot maydoni sifatida shakllanayotgani qayd etiladi [27]. Bu umumlashtirish shuni ko‘rsatadiki, o‘zbek bolalar nutqini o‘rganish bir yo‘nalish doirasida emas, balki psixolingvistika, pragmatolingvistika, sotsiolingvistika, kognitiv tilshunoslik, matnshunoslik, bilingvizm va lingvodidaktika bilan uzviy bog‘liq holda rivojlanmoqda.

4. Jahon va o‘zbek tadqiqotlarida kuzatiladigan umumiy tendensiyalar

Tahlil natijasida bir necha umumiy tendensiya ajralib chiqadi. Birinchidan, bolalar nutqini o‘rganishda “me’yoriy xato”dan “rivojlanish qonuniyati”ga o‘tish kuzatiladi. Avvalgi yondashuvlarda bola talaffuzidagi buzilish, so‘z shaklidagi noaniqlik yoki grammatik almashtirish ko‘pincha xato sifatida baholangan. Zamonaviy ontolingvistika esa bunday shakllarni bolaning til tizimini faol qurayotganini ko‘rsatuvchi dalil deb hisoblaydi.

Masalan, bola qo‘shimchani o‘zi bilgan andozaga ko‘ra boshqa so‘zga qo‘llasa, bu oddiy xato emas, balki analogiya asosida umumlash tirish jarayonidir [10; 14].

Ikkinchidan, tadqiqotlar fonetik va leksik kuzatuvdan pragmatik hamda diskursiv tahlilga qarab kengaymoqda. Bolaning tovushlarni qanday aytishi, qaysi so‘zlarni avval o‘zlashtirishi yoki nechta so‘z bilishi muhim bo‘lsa-da, bugungi tadqiqotlarda bola bu birliklarni qaysi maqsadda, kimga, qanday intonatsiyada va qanday vaziyatda qo‘llashi ham markaziy masalaga aylanmoqda. O‘zbek tilshunosligida Qurbonova, Sayidiraximova va Musayeva tadqiqotlari aynan shu siljishni ko‘rsatadi [21; 22; 24].

Uchinchidan, bolalar nutqini o‘rganishda milliy til tipologiyasini hisobga olish zarurati kuchaydi. Ingliz tilida so‘z tartibi va yordamchi fe‘llar muhim bo‘lsa, o‘zbek tilida qo‘shimcha, egalik, kelishik, shaxs-son ko‘rsatkichlari, so‘z yasovchi va shakl yasovchi morfemalar alohida ahamiyatga ega. Shuning uchun ingliz yoki rus tilidagi rivojlanish bosqichlarini o‘zbek tiliga bevosita ko‘chirish to‘g‘ri emas. O‘zbek bolasi nutqida kelishik shakllari, egalik qo‘shimchalari, fe‘l zamonlari va hurmat shakllarining qaysi izchillikda o‘zlashtirilishini maxsus empirik material asosida aniqlash kerak.

To‘rtinchidan, bolalar nutqini o‘rganishda korpus va raqamli metodlarga ehtiyoj ortmoqda. Jahon tajribasida CHILDES kabi platformalar bolalar nutqini standart transkripsiya, yosh, vaziyat, ishtirokchi, til, morfologik belgi va audio-video ma‘lumot bilan saqlash imkonini beradi [16]. O‘zbek tili uchun bunday milliy bolalar nutqi korpusining yaratilishi nutq ontogenezi nafaqat tavsiflash, balki miqdoriy ko‘rsatkichlar bilan tekshirish imkonini beradi.

Muhokama

Jahon va o‘zbek tilshunosligidagi bolalar nutqi tadqiqotlari qiyoslanganda, ilmiy yo‘nalishlar taraqqiyotida ayrim umumiyliklar va farqlar ko‘rinadi. Umumiylik shundaki, har ikki an‘anada ham tadqiqotlar dastlab kuzatuv va pedagogik ehtiyojlardan boshlangan. Jahon tajribasida bu jarayon XIX asrdayoq individual kundaliklar bilan boshlangan bo‘lsa, o‘zbek tilshunosligida bolalar nutqi avval nutq o‘stirish metodikasi, maktabgacha ta‘lim va savod o‘rgatish masalalari bilan bog‘liq holda ko‘proq amaliy yo‘nalishda rivojlandi. Farq shundaki, jahon tilshunosligida bolalar nutqi bo‘yicha katta hajmli krosslingvistik va korpus tadqiqotlari shakllangan, o‘zbek tilshunosligida esa bu bosqich endi kuchaymoqda.

O‘zbek bolalar nutqini tadqiq etishda tilning agglutinatив qurilishi alohida nazariy ahamiyatga ega. Bola o‘zbek tilida ma‘no va grammatik munosabatlarning katta qismini qo‘shimchalar orqali ifodalaydi: egalik, kelishik, ko‘plik, shaxs-son, zamon, mayl, nisbat va so‘z yasash shakllari nutqning erta bosqichlaridayoq faol maydonga chiqadi. Shu sababli o‘zbek bolalar nutqida morfologik ortiqcha qo‘llash, qo‘shimchani tushirib qoldirish, o‘xshash shakllarni almashtirish, so‘z tartibini soddalashtirish kabi hodisalar bolaning grammatik tizimni qanday qurayotganini ko‘rsatadi. Bunday material umumiy til o‘zlashtirish nazariyalari uchun ham qimmatli bo‘lishi mumkin.

Pragmatik jihatdan ham o‘zbek bolalar nutqi alohida tadqiqot maydonidir. O‘zbek muloqotida katta-kichikka murojaat, hurmat shakllari, iltimos, buyruq, erkalash, koyish, duo, taqiq, ruxsat, minnatdorchilik kabi nutqiy aktlarning madaniy shakllari kuchli. Bola bu birliklarni faqat grammatik jihatdan emas, ijtimoiy vaziyatga mos holda ham egallaydi.

Demak, bola “nima dedi?” degan savol bilan birga, “kimga dedi?”, “qaysi ohangda dedi?”, “qanday ijtimoiy munosabatni bildirdi?” degan savollar asosida ham tahlil qilinishi kerak. Qurbonovanning pragmlingvistik ishlari va Sayidiraximovanning gap maqsadlari bo‘yicha tahlillari bu yo‘nalishning ilmiy imkoniyatlarini ko‘rsatadi [21; 22].

Mavjud tadqiqotlarda yana bir muhim masala — bolalar nutqini yosh davrlari bo‘yicha aniq chegaralashdir. Jahon tajribasida 0–1 yosh preverbal davr, 1–2 yosh bir so‘zli va ikki so‘zli nutq, 2–3 yosh grammatik portlash, 3–5 yosh murakkab gaplar va dialogik faollik, 5–7 yosh maktabga tayyor diskursiv nutq kabi bosqichlar ajratiladi. O‘zbek tili uchun ham bunday bosqichlar zarur, lekin ular o‘zbek tilining fonetik va grammatik o‘ziga xosligiga mos holda tekshirilishi kerak. Masalan, qaysi yoshda bola egalik qo‘shimchalarini barqaror qo‘llaydi, qaysi yoshda kelishiklarni farqlaydi, qachon to‘liq sodda gapdan bog‘langan nutqqa o‘tadi — bular alohida eksperimental va korpus tadqiqotlarini talab qiladi.

Bilingval va ko‘p tilli muhit masalasi ham o‘zbek ontolingvistikasida kelajakdagi eng muhim yo‘nalishlardan biridir. O‘zbekiston sharoitida ko‘plab bolalar oilada bir til, bog‘cha yoki maktabda boshqa til, media orqali esa uchinchi til elementlari bilan duch keladi. Bu holat bola nutqida kod almashish, fonetik interferensiya, so‘z tanlashdagi ikki tillilik, grammatik shakllarning aralashuvi kabi hodisalarni keltirib chiqarishi mumkin. Bunday holatni “nutq buzilishi” bilan aralashtirmaslik, uni tabiiy bilingval rivojlanish hodisasi sifatida tahlil qilish zarur [25].

Muhokama natijasida shunday xulosa kelib chiqadiki, o‘zbek bolalar nutqi bo‘yicha kelgusida uch yo‘nalish ustuvor bo‘lishi kerak. Birinchisi — tabiiy nutq namunalarini yosh, jins, hudud, ijtimoiy muhit va til vaziyatiga ko‘ra to‘plovchi korpus yaratish. Ikkinchisi — o‘zbek tilining morfologik, sintaktik va pragmatik birliklarini bola nutqida bosqichma-bosqich o‘zlashtirish xaritasini ishlab chiqish. Uchinchisi — bolalar nutqidagi innovatsiyalar, xatolar va o‘ziga xos shakllarni me‘yor buzilishi sifatida emas, rivojlanishning ichki belgisi sifatida ilmiy tasniflash.

Xulosa

Bolalar nutqi ontogenezi jahon tilshunosligida XIX asr oxiridagi individual kuzatuvlardan boshlab bugungi korpus va krosslingvistik tadqiqotlargacha bo‘lgan katta ilmiy yo‘lni bosib o‘tdi. Dastlab bola nutqi tabiiy rivojlanish kundaliklari orqali tavsiflangan bo‘lsa, keyinchalik u tafakkur, ichki nutq, grammatik qobiliyat, biologik pishilish, ijtimoiy yordam, pragmatik maqsad va muloqot muhitining murakkab birligi sifatida izohlandi. Behavioristik, generativ, sotsiomadaniy, kognitiv, funksional-pragmatik va korpus yondashuvlarining har biri bola nutqining muayyan jihatini yoritadi; shu bois zamonaviy tadqiqotlarda integrativ yondashuv zarur.

O‘zbek tilshunosligida bolalar nutqini o‘rganish dastlab metodik-amaliy ehtiyojlar bilan bog‘liq bo‘lgan bo‘lsa, keyingi yillarda u mustaqil ontolingvistik yo‘nalishga aylanmoqda. Sayidirahimova bolalar nutqining lingvistik va psixolingvistik xususiyatlarini, Qurbonova sotsiopsixolingvistik va pragmlingvistik jihatlarni, Davlatova shakllanish omillari va psixolingvistik sharoitlarni, Musayeva kvazidialogik nutqni, Shamsiyeva bilingval bolalar nutqini tadqiq etgani bilan sohaning nazariy maydonini kengaytirdi. Bu

ishlar o‘zbek bolalar nutqiga kattalar nutqining yetilmagan nusxasi sifatida emas, balki o‘ziga xos rivojlanish tizimi sifatida qarashga asos bo‘ladi.

Kelgusida o‘zbek bolalar nutqi bo‘yicha yirik empirik baza yaratish, transkripsiya va kodlash mezonlarini standartlashtirish, turli hudud va ijtimoiy muhitdagi bolalar nutqini qiyoslash, agglutinatив morfologiyani o‘zlashtirish bosqichlarini aniqlash, pragmatik kompetensiya va nutqiy aktlar rivojini yosh davrlari bo‘yicha o‘rganish dolzarbdir. Shuningdek, bilingval bolalar nutqi, media ta’siri, nutqiy innovatsiyalar va inklyuziv ta’lim sharoitidagi nutq rivoji kabi masalalar ham alohida ilmiy e’tibor talab qiladi. Umuman, bolalar nutqi ontogenezi o‘zbek tilining tabiiy o‘zlashtirish mexanizmlarini yorituvchi, nazariya va amaliyot uchun birdek ahamiyatli istiqbolli tadqiqot sohasidir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

- [1] Darwin C. A biographical sketch of an infant // *Mind*. – 1877. – Vol. 2, № 7. – P. 285–294. DOI: 10.1093/mind/os-2.7.285.
- [2] Preyer W. *Die Seele des Kindes: Beobachtungen über die geistige Entwicklung des Menschen in den ersten Lebensjahren*. – Leipzig: Grieben, 1882.
- [3] Stern C., Stern W. *Die Kindersprache: Eine psychologische und sprachtheoretische Untersuchung*. – Leipzig: Barth, 1907.
- [4] Piaget J. *The Language and Thought of the Child*. – London: Routledge, 2001. – Original work published 1923.
- [5] Vygotsky L. S. *Thought and Language*. – Cambridge, MA: MIT Press, 1986. – Original work published 1934.
- [6] Gvozdev A. N. *Formirovanie u rebenka grammaticheskogo stroya russkogo yazyka*. – Moskva: Izd-vo APN RSFSR, 1949.
- [7] Skinner B. F. *Verbal Behavior*. – New York: Appleton-Century-Crofts, 1957.
- [8] Chomsky N. A Review of B. F. Skinner’s *Verbal Behavior* // *Language*. – 1959. – Vol. 35, № 1. – P. 26–58.
- [9] Lenneberg E. H. *Biological Foundations of Language*. – New York: John Wiley & Sons, 1967.
- [10] Berko J. The Child’s Learning of English Morphology // *Word*. – 1958. – Vol. 14, № 2–3. – P. 150–177. DOI: 10.1080/00437956.1958.11659661.
- [11] Brown R. *A First Language: The Early Stages*. – Cambridge, MA: Harvard University Press, 1973.
- [12] Bruner J. S. *Child’s Talk: Learning to Use Language*. – New York: W. W. Norton, 1983.
- [13] Slobin D. I. (ed.). *The Crosslinguistic Study of Language Acquisition*. Vol. 1: *The Data*. – Hillsdale, NJ: Lawrence Erlbaum Associates, 1985.
- [14] Tomasello M. *Constructing a Language: A Usage-Based Theory of Language Acquisition*. – Cambridge, MA: Harvard University Press, 2003.
- [15] Clark E. V. *First Language Acquisition*. 2nd ed. – Cambridge: Cambridge University Press, 2009.

[16] MacWhinney B. The CHILDES Project: Tools for Analyzing Talk. 3rd ed. – Mahwah, NJ: Lawrence Erlbaum Associates, 2000.